

OLAM LISONIY MANZARASIDA BAHO KATEGORIYASINING OKSIOLOGIK JIHATDAN NAMOYON BO'LISHI

Nodira Mamatova O'ktam qizi¹

Abstract: This article discusses an Oxylogical manifestation in the image of the national language landscape of the world. It is conducted with the help of a comparison method and demonstrates a few examples of it.

Keywords: World, language landscape of the world, evaluation, oxylogy, proverb, story.

Kirish:

Dunyodagi jamiyki tillar olam lisoniy manzarasiga ega bo'lib, turli kategoriyalarda aks etadi. Tillar insonning olam, borliq haqidagi fikrlarini anglashga, namoyon etishga yordam beradi. Olamning manzarasi va undagi lisoniy baholanish insonlarga vaziyatlarni to'g'ri tushunishga, salbiy so'zlarni ham ijobiy ma'noda tushunishga va aksincha ijobiy so'zlarda ham salbiy ma'no borligini anglashga xizmat qiladi. Bu kabi kategoriyalar asosan doston, maqol, matallarda ko'p ishlatiladi.

Olam lisoniy manzarasi butun insoniyat uchun asl ma'no ifodalaydigan kategoriyalar jamlanmasidir. Shuni ta'kidlash joizki, ma'no, tushunish va baholay olish uchun biz aynan vaziyatni olib ish ko'rishimiz muhim ahamiyatga ega. Bu kognitiv jarayonni yuzaga keltiradi. Kognitiv protsedura natijasida sub'ektning axloqiy harakatlarini xususiyatlari, fazilatlarini baholash degan xulosaga keladi "Yaxshi" fazilatiga taqlid qilish kerak, "Yomon" narsadan qochish kerak. Ijobiy xususiyatlari, fazilatlarini "Yaxshi"-bu o'rnak modellari, masalan:

A good book is a good friend (Yaxshi kitob yaxshi do'st)

the best recreation is to do good (Eng yaxshi hordiq bu yaxshilik);

A good face is a letter of recommendation (Yaxshi yuz juda yaxshi harfga teng);

A friend in need is a friend indeed (do'st boshga ish tushganda bilinadi);

Leksemaning mazmun jihatida, voqelikni nomlashdan tashqari nomlanayotgan voqelikka munosabat ham bildiriladi.

Baho so'zlovchining ob'ektga yoki holatga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatidir. Baho ko'proq belgi bildiruvchi leksemalarda uchraydi, lekin predmet, harakat, holat ma'nosini anglatuvchi leksemalarda ham mavjud. Belgi orqali munosabat ifodalanar ekan, sifat so'z turkumini tashkil etuvchi leksemalarda baho munosabati yaqqol namoyon bo'ladi.

Masalan o'zbek misollarida olib qaraydigan bo'lsak:

- Voy, dadajon, buvam ketib qoldilarmi?

- E bolam, hayot shunaqa ekan, sen kimga zor bo'lsang, o'zini aziz qilib intizor

¹ Samarqand viloyati Jomboy tumani 18- umumiy o'rta ta'lim maktabi, ingliz tili o'qituvchisi



qiladi.

Misolimizdagi “zor”, “aziz”, “intizor” leksemalaridan baho semasining belgi orqali ifodalanishini ko‘rish mumkin. Baho aksiologik jihatdan predmet yoki harakatning bahosini anglatar ekan, bu jihatning aynan sifatlarda namoyon bo‘lishi tabiiy holdir. Ijobiy yoki salbiy baho semasini berishda belgi ifodalovchi leksemalar faol tarzda ishlatiladi. Masalan:

Qanday yoqimli tong! To‘yib–to‘yib nafas olasan! Buncha

fusunkor bo‘lmasa bahor! Qishlog‘imiz naqadar go‘zal–a!(Gazetadan). Misolimizdagi “yoqimli”, “fusunkor”, “go‘zal” sifatlari orqali ijobiy ma‘nodagi bahoni ko‘rish mumkin. Sifatning ma‘noviy guruhlaridan foydalanib ijobiy yoki salbiy baho berish mumkin.

Bundan ko‘rinadiki, leksemalar o‘zi ifodalagan ma‘nosiga ko‘ra baho ifodalaydi ya‘ni salbiy ma‘noda bo‘lsa salbiy ijobiy ma‘noda bo‘lsa ijobiy bahoda ifodalanadi. Misollardan ko‘rinadiki, “yoqimli”, “aziz”, “fusunkor”, “mehribon”, “oliyjanob” kabi leksemalarimiz ijobiy ma‘noda ishlatilmoqda. Quyidagi “johil” “qahriqattiq”, “bag‘ritosh”, “sabrsiz”, kabi leksemalar salbiy ma‘no ifodalab kelmoqda va u salbiy baholanishga misol bo‘la oladi. Baholash tushunchasi tilshunoslikda baholashda mantiqqa bog‘liq bo‘ladi ya‘ni tilshunoslik baholash mantig‘i orqali baholanadi. Tahlil qilinishicha, baho kategoriyasi aksiologik jihatdan namoyon bo‘lishida obyekt narsa–predmet va hodisa-harakatlar muhim rol o‘ynaydi. Tushunishimizcha bunday aksiologik jihatdan baholanish hamma tilda ham bir xil bo‘lmas ekan ya‘ni o‘sha millatning qadriyatlar va dunyoqarashi bilan namoyon bo‘lar ekan ya‘ni ma‘lum bir millatda ota-onaga hurmat yuksak qadrlansa ma‘lum bir millatda do‘stlik juda buyuk qadrga ega ekan ya‘ni ta‘kidanganidak qadriyatlar asosiy vazifani bajaradi. Mazmun jihatidan leksemalar yuqoridagi shakllarda namoyon bo‘ladi.

A good book is a good friend, ushbu maqolda yaxshi kitob yaxshi do‘st ekanligi aytilmoqda, tahlilda esa kitob bu gap obyektini hisoblanadi va subyekt tomonidan ya‘ni muallif tomonidan bu kitob yaxshi ekanligi ya‘ni leksema ijobiy bahodagi obyekt ekanligi tushunilmoqda. Bunda subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabat ijobiy baholanmoqda. Aksiologik jihati ijobiy ma‘noni namoyon qilmoqda.

Bad news has wings ya‘ni yomon xabar tez tarqalishi ta‘kidlanmoqda bunda obyekt news bo‘lib baholanishda salbiy leksema ya‘ni bad-yomon va news gap obyektini bilan ishlatilmoqda aksiologik jihatdan salbiy ma‘no ifodalamoqda. Gap subyektini bo‘lgan muallif gapga salbiy baho bilan yondoshgan va bu salbiy ma‘no ifodalagan leksemali baho kategoriyasining bir misoli hisoblanadi. Sifatlar esa aksiologik ma‘noni ifodalashda ishlatiladigan asosiy so‘z turkumi hisoblanadi ya‘ni baho sifatlar orqali ifodalanadi.

Baholash tushunchasi tilshunoslik sohasiga baholash mantig‘idan kirdi, bunda

umumiy ma‘noda baholash qadriyatlar haqidagi bayonot sifatida ta‘riflanadi. Shu bilan birga, qiymat deganda har qanday qiziqish, istak, intilish va

hokazolarning har qanday ob‘ekti tushuniladi, bunda ijobiy va salbiy qadriyatlar



o'rtasida farqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, baholash deganda ob'ektning ijobiy salbiy ma'nosi ochiladigan ob'ektning shunday ta'rifi tushuniladi.

Ma'lumki, pragmatikaning markaziy tushunchalaridan biri baho hisoblanadi. Baho falsafiy-mantiqiy kategoriya sanalib, uning nazariy asoslanishi formal aksiologiyada o'z aksini topgan. Bu masala tilning semantik yo'nalishi bilan aloqador bo'lib, unda ko'proq til yoki nutq birliklarining mazmun jihatiga e'tibor qaratiladi va falsafiy qarashlar asosida tadqiq etiladi. Mazkur masala bo'yicha chet el va rus tilshunosligida bir qator tadqiqotlar olib borilgan V.N.Teliya, E.M.Volf, V.I.Abaev, N.D.Arutyunova, V.A.Vasilenko, M.A. Lukyanova, T.V.Markelova, O.V.Saxarova, M.Yakubovich va boshqalar.

O'zbek tilshunosligida tilning turli sathlarida baho ifodalovchi vositalarni aniqlashga bag'ishlangan A.G'ulomov, A.Hojiev, R.Qo'ng'urov, R.Rasulov kabilarning ishlari mavjud bo'lsa ham, lekin ularda aksiologik baho alohida lingvistik kategoriya sifatida yaxlit holda monografik tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Shuni ham aytish kerakki, ushbu muammo yuzasidan dastlabki qadamlar qo'yildi (masalan: G'.Qambarov), lekin ularda aksiologik baho haqidagi umumiy fikrlar berilgan bo'lib, uning har bir sathda namoyon bo'lishi keng planda o'rganilmagan. Shu jumladan, o'zbek tilida bahoning aksiologik talqini hamon o'z yechimini kutmoqda. Bu holat tadqiqot uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan baho munosabatlari logik tilshunoslar, semantika bilan shug'ullanuvchi E.M.Volf, N.A.Arutyunova¹, S.S.Xidekel, G.G.KaShel, A.A.Ivin kabi olimlar asarlarida yoritila boshlandi.

N.D.Arutyunovada aksiologik masala falsafiy asosda olinadi va tadqiqot logiksemantik yo'nalishda olib boriladi. S.S.Xidekel va G.G.Kashel tadqiqotlarida baho ifodalovchi leksik vositalarning semantik tasnifi berilgan bo'lib, ular faqat umumiste'moldagi leksemalarga e'tiborni qaratadilar. N.D.Arutyunova ikki xil nopredmet ob'ektni ajratishni kifoya deb biladi: jarayon (holat, xususiyat, hodisa) va faktlar (ya'ni propozitsiyalar). Birinchisi insonning ob'ektiv borliqqa singib borish muhitini, ikkinchisi borliqning inson ongiga singish natijasini bildiruvchi narsa-tushunchalarni umumlashtiradi. U o'z fikrini davom ettirib, birinchi guruhga quyidagi predmetlarni kiritish mumkinligini aytdi: harakatlanish va harakatsizlik, harakat yoki holatning darajalanishi, natijalilik va natijasizlik kabilarni kiritadi.

Xulosa o'rnida, shaxs yoki ob'ektni baholash vaqtida bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan ma'lum bir jarayon natijasida amalga oshirilgan holda:

- kognitivbaholash protsedurasidan o'tish "yaxshi", "yomon" baholovchi predikatlar asosida;
- kognitiv tasniflash xususiyatining ta'rifi-prototip; ob'ektning differentsial
- xususiyatlarini aniqlash; prototipning xususiyatlarini va ob'ektning differentsial



- xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Ayrim aforizmlar bizlarga yashashni o'rgatadi. Misol uchun, "Sening munosabating, sening darajangni aniqlab beradi", "Agar temir ishlatilmasa, zanglaydi. Agar suv harakatlanib turmasa, ayniydi. Agar kishi fikrlamas, aql bilan ham shunday holat yuz beradi". Ushbu aforizmlarda hayot qonuni jamlangan bo'lib, tan olish kerakki ular bizni to'g'ri yashashga undaydi. Yaxshilik va yomonlik-axloqshunoslik fanining juft tushunchasi hisoblanadi. Odamlarning xatti-harakatlariga, ijtimoiy hodisalarga berilgan ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalaydi. Yaxshilik - eng muhim fazilat bo'lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag'ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Yaxshilik insonning axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, unda kamtarlik, ochiqko'ngillilik, mardlik, halollik, insoflilik, adolat, rostgo'ylik kabi fazilatlar mujassam bo'ladi. Yomonlik yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illat Baholanishda va aksiologik ma'no ifodalashda maqollar ham katta o'rin egallaydigan ular ulkan va yashirin ma'nolarni ifodalaydi. Maqollar esa umumiy bo'lib, ular aynan bir insonga tegishli bo'lmaydi va butun bir xalqning hayotiy va falsafiy qarashlarini o'zida mujassamlaydi.

- Yaxshilik va yomonlikni bilmaslik inson hayotining eng bezovta qiluvchifaktidir.
- Yomonlik manbai behuda, yaxshilik manbai esa rahmdildir.
- Biz odamlarni o'zimizga qilgan yaxshiliklari uchun sevamiz va ularga qilgan yomonliklarimizni sevmaymiz.
- Yomonlik yaxshilikdan tug'ilmaydi va aksincha. Odamlarning ko'zlari ularni ajratish uchun berilgan.
- Yomonlikni sezmagan-ahmoq, yaxshilikni sezmagan – baxtsizdir.

Yuqoridagi keltirilgan misollardan shuni ko'rishimiz mumkinki, "yaxshilik" va "yovuzlik" konseptlarini ifodalovchi va ma'no ifodalovchi bu kabi aforizmlarda insonni imkon qadar qo'lidan kelganicha yaxshilik qilishga va bu qilgan ezguliklari boshqa insonlar qalbida boqiy yashashiga urg'u berilgan. Shuningdek, bu kabi ezgu amallar va insonlarning qalbidagi ezgulik urug'lari insonning hayoti yaxshi kechishiga va uning ichki dunyosi sokinligiga o'z hissasini qo'shishi madh etilgan bo'lib yaxshilikka undovchi ijobiylikni o'zida saqlaydi. Bundan farqli o'laroq, salbiy ma'noga ega bo'lgan "yomonlik" konseptini o'zida jo qilgan yuqoridagi aforizmlarda insonga yovuzliklar va yomonliklar va bizning yomon ishlarimiz va chirkin o'ylarimiz oqibatda yaxshilik olib kelmasligi va hayotimiz behalovatlikda o'tishini hamda qilgan yovuz va qabih amallarimiz va o'ylarimiz o'zimizga qaytib kelishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilganda shuni aytish mumkinki, har birmillat o'z madaniyatiga ega bo'lib, inson qadri, sha'ni, yovuzlik, do'stlik kabi chuqur ma'nodagi iboralar so'zlar turli elatlarda turlicha baholanadi turlicha qarashlarga ega bo'ladi. Bunda esa ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan xalq eposlarining o'rni



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

beqiyos bo'lib borliqni anglashdagi xilma-xillikni ta'minlab beradi va bir-birini takrorlamaydi. olamning lisoniy manzarasidabaho kategoriyasi insonva uning turmush sharoiti, uning dunyo bilan o'zaro munosabati voqelikga bildiradigan fikrini aks ettirishdagi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib u oksilogik jihatdan keng ma'no ifodalaydi.

REFERENCES

- 1.A.K.Utambetova Tilshunoslik nuqtai nazaridan baxolash kategoriyasi (ingliz va o'zbek tillarida misolida 3-4 Toshkent 2022)
- 2.A.K.Utambetova Tilshunoslik nuqtai nazaridan baxolash kategoriyasi (ingliz va o'zbek tillarida misolida 4-7 Toshkent 2022)
- 3.“YAXSHILIK” VA “YOVUZLIK” KONSEPTLARINING MILLIYMA'DANIY XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK AFORIZMLARI MISOLIDA) Normamatov Farrux Komiljon o'g'li Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor p881-882 2022]
- 4.Ivin A.A. Falsafiy lug'atlar ensiklopediyasi– M.: Gardarinki, 2004. – 1072 b.
5. A.Sa'dulla. “Rayhon guli”.
- 6.Ziyo.uz.www.

